

**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**COGNITIVE-SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES****Mavjuda Mardiyevna Bolibekova**Associate Professor, PhD, Faculty of Foreign Philology
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbekmavjudamardiyevna@gmail.com

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** phraseological unit, cognitive semantics, conceptual metaphor, contextual meaning, linguoculturology.**Received:** 23.12.25**Accepted:** 24.12.25**Published:** 25.12.25**Abstract:** The article provides a comparative analysis of the cognitive-semantic features of phraseological units in English and Uzbek languages. The research highlights the role of phraseological units in literary texts, their national-cultural essence, and their connection with human cognition.**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING KOGNITIV-SEMANTIK XUSUSIYATLARI****Mavjuda Mardiyevna Bolibekova**

Xorijiy Filologiya fakulteti dotsenti, PhD

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

mavjudamardiyevna@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, kognitiv semantika, konseptual metafora, kontekstual ma'no, lingvokulturologiya.**Annotatsiya:** Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi frazeologik birliklarning kognitiv-semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida frazeologizmlarning badiiy matndagi o'rnini, ularning milliy-madaniy tabiati va inson tafakkuri bilan bog'liqligi yoritilgan.**КОГНИТИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ****Мавжуда Мардиевна Болибекова**

Доцент, PhD, факультет зарубежной филологии,

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

mavjudamardiyevna@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: фразеологическая единица, когнитивная семантика, концептуальная метафора, контекстуальное значение, лингвокультурология.

Аннотация: В статье проводится сравнительный анализ когнитивно-семантических особенностей фразеологических единиц в английском и узбекском языках. В ходе исследования освещаются роль фразеологизмов в художественном тексте, их национально-культурная природа и связь с человеческим мышлением.

Kirish. Frazeologiya tilshunoslikning eng boy va murakkab sohalaridan biri bo‘lib, u nafaqat tildagi tayyor iboralarni, balki xalqning dunyoqarashi, madaniyati va tafakkur tarzini ham o‘zida mujassam etadi. Zamonaviy tilshunoslikda frazeologik birliklarni o‘rganish an’anaviy semantik tahlildan kognitiv tahlil tamoyillariga o‘tmoqda. Bu jarayonda kognitiv semantika tahlilning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Kognitiv yondashuvga ko‘ra, frazeologik birliklar shunchaki obrazli iboralar emas, balki inson ongida mavjud bo‘lgan konseptual tuzilmalarning tilda namoyon bo‘lishidir. Mashhur tilshunos olimlar J.Lakoff va M.Jonsonning ta’kidlashicha, inson tafakkuri tabiatan metaforik xarakterga ega [1:3]. Tilshunoslar tomonidan ilgari surilgan kognitiv metafora nazariyasi frazeologizmlar tarkibidagi ontologik, oriyentatsion va struktur metaforalarni tushunishga yordam beradi. Frazeologik birliklarning shakllanishida quyidagi omillar muhim rol o‘ynaydi:

Milliy-madaniy omil: O‘zbek tilida frazeologik birliklar ko‘proq xalqona iboralar, dostonlar va qadimiy hikmatlar asosida shakllangan bo‘lsa, ingliz tilida tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va diniy qarashlar ustuvorlik qiladi.

Kognitiv modellashirish: Frazeologiya til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yorituvchi vositadir. Bu tushunchalar ongda konseptual tuzilma sifatida shakllanadi va tilning semantik qatlami orqali yuzaga chiqadi.

Metaforik xaritalash: Masalan, “ko‘z yummoq” iborasida ontologik metafora asosida “befarqlik/voz kechish = ko‘z yummoq” xaritasini hosil qiladi. Bu yerda aniq fizik harakat orqali mavhum axloqiy tushuncha ifodalanadi.

V.N. Teliya kabi olimlarning fikriga ko‘ra, frazeologik birliklar tilning “madaniy xotirasi” hisoblanadi [2]. Ular badiiy matnlarda muallif uslubini ifodalash bilan birga, asarning estetik ta’sirini va obrazlilikini kuchaytiradi. Frazeologik birliklar kognitiv nuqtai nazardan bir necha guruhlariga, jumladan, emotsiya, ijtimoiy munosabatlar, aqliy faoliyat, harakat va sezgi idrok guruhlariga bo‘linadi.

Tilshunos Z.Kovekses metaforalarni tahlil qilar ekan, hissiyotlar va aqliy jarayonlar ko‘pincha harakat traektoriyasi orqali ifodalanishini ko‘rsatib beradi. Uning yozishicha,

“murakkab abstrakt tushunchalar (masalan, fikrlash) jismoniy harakat (sayohat yoki yo‘l) tushunchalari yordamida modellashiriladi” [3: 33].

Tilshunos A.V.Kunin frazeologik birliklarning kontekstual ma’nolarini o‘rganar ekan, ularning kontekstual xususiyatlariga e’tibor qaratadi. U frazeologizmlarning semantik strukturasi kontekstda o‘zgarishi va yangi uslubiy bo‘yoqlar kasb etishi mumkinligini isbotlagan [4: 128].

Frazeologik birliklar badiiy matnlarda obrazlilikni oshiradi, muallifning o‘ziga xos uslubini ifodalaydi va asarning ma’nosini chuqurlashtiradi. Ingliz va o‘zbek tillarida bu birliklar o‘quvchini matn mazmuniga yanada yaqinlashtiradi va asarning estetik ta’sirini kuchaytiradi. Ingliz tilida frazeologik birliklar ko‘pincha tarixiy voqealar, ijtimoiy munosabatlar va din bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘zbek tilida esa frazeologik birliklar xalqona iboralar, dostonlar va qadimiy hikmatlardan shakllangan bo‘lib, milliy ruhni aks ettiradi. Frazeologik birliklar badiiy asarlar tilini stilistik tahlil qilishda muhim manba hisoblanadi. Ular asarning mavzusi, qahramonlarning xarakteri va voqealar rivojini ochib berishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Turli matnlardagi frazeologik birliklarni tadqiq etishda ularning semantik, struktur va stilistik xususiyatlarini chuqur o‘rganish zarur. Bu tilshunoslik, tarjimashunoslik va adabiyotshunoslik sohalariga boy ilmiy-amaliy ma’lumotlar taqdim etadi va til imkoniyatlarini yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

Frazeologiyani tashkil etadigan leksik birliklarning ma’nolarini tahlil qilish kognitiv semantika orqali amalga oshiriladi. Frazeologik birliklarni kognitiv semantika tomonidan o‘rganish til, tafakkur va madaniyat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni yoritishga yordam beradi. Polisemanik frazeologik birliklarni kognitiv-semantik xususiyatlari asosida kategoriyalarga ajratish uchun har ikkala tilda frazeologik birliklarning kontekstual ma’nolarini batafsil tahlil qilishga harakat qilamiz. Ingliz tilida “leg up”, “move on”, “get a move on” frazeologik birliklarini kontekst asosida tahlilga tortamiz:

“Give a leg up”:

1. I can’t stand it in here anymore. Give me a leg up, Angalo. (T.Pratchett. Wings, P. 74.).

2. Come on, Miss Pargeter, someone must have had an interest in giving Nicola a leg up?’
The presenter smiled. (T.Barnes. Taped.).

3. Chap in the wig, said Cornelius, giving his chum a leg up. Shall I bid ten? Move your bus! shouted a travelling salesman with places to be. (R.Rankin. The book of ultimate truths, P. 82.).

Birinchi gap kontekstida frazeologik birlik vaziyatdan chiqishga yordam so‘rash, ya’ni qochish yoki chiqishga yordam sifatida ishlatilgan. Frazeologik birlikda “qochish = yuqoriga harakat” oriyentatsion metaforasi ifodalangan bo‘lib, harakat istagi kuchli emotsional holat bilan bog‘langan. Keyingi kontekstda frazeologik birlikning jamiyatda yoki karyerada ko‘tarilish uchun ko‘mak ma’nosi “yuksalish = balandlikka ko‘tarilish” oriyentatsion metaforasi asosida yuzaga

kelgan hamda ijtimoiy pozitsiya fizik balandlik sifatida idrok qilinishiga olib kelgan. Kontekstual ma'no semantik jihatdan karyera, ko'mak, ijtimoiy statusni izohlagan.

Oxirgi kontekstda fizik yordam domeni metaforik tarzda ijtimoiy yordam domeniga ko'chib, yordam, do'stlik, ko'mak semantik asoslarini izohlagan va "yordam, ko'mak = yuqoriga ko'tarilish" konseptual metaforasini jonlantirgan. Shunday qilib, kontekstlarda "give a leg up" frazeologik birligi orqali ijtimoiy, psixologik, jismoniy yordam har doim balandlik, ko'tarilish oriyentatsion metaforalari bilan ifodalanishini hamda harakat (motion event) va maqsadga yo'naltirilgan faoliyat (goal-directed action) sifatida modellashtirilganligini ko'rishimiz mumkin.

"Move on":

1. I'm sure he would have asked me to stay on if I had. A shrewd move on your part, Maggie nodded. (E.Blair. Maggie Jordan, P. 28.).

2. Nothing eventful occurred that night, and as Hugh had not returned, and as a careful search discovered no trace of Marian and Allen, it was decided to move on with every precaution into territory which with every yard became potentially more hostile. (D.Clifford. The affair of the forest.).

Daslabki gapda frazeologik birlik yaxshi, aqlli qaror, strategik qadam ma'nosini ifodalagan va "qarorlar = harakatlar" struktur metaforasini shakllantirgan. Kontekstda "move" – konkret harakat emas, balki abstrakt kognitiv faoliyat sifatida ishlatilmoqda hamda harakat aniq o'ylangan strategik tanlov sifatida talqin qilinmoqda.

Ikkinchi gapda "hayot = sayohat" konseptual metaforasi asosida jismoniy harakatni emas, balki biror holatdan keyingi holatga o'tishni ifodalagan. Bu kontekstda "moving on" joydan joyga o'tish + vaziyatdagi o'zgarishni ifodalagan hamda strategik qaror, xavf bilan yuzlashish, va hissiy jihatdan davom etishni anglatib kelgan.

"Get a move on":

1. Marie was wading up to the path through waist-high reeds: Look at the state of my clothes! Never mind them! Let's get a move on! (S.Gates, The lock.).

2. About time, too, he said. 'He's been looking dreadful for days, I've been telling him to get a move on. (J.K.Rowling, Harry Potter and the Chamber of Secrets. P.155).

Dastlabki kontekstual ma'no: tezroq harakat qilish, shoshilish. Oriyentatsion metafora - "harakat = faollik" asosida harakat qilish zarurligi tezlik va vaqtga urg'u bergan. Keyingi gapda "kasallik/og'ir holat = tanaffus" ontologik metaforasi harakatni boshlash va sustkashlik holatidan chiqish ma'nosini ifoda etishda yuzaga kelgan.

O'zbek tilida esa "ko'z yummoq", "o'yga bormoq", "fe'li aynimoq" frazeologik birliklari tahlilga tortildi:

"Ko'z yummoq":

1. Yumar ko‘z bu jahonning ziynatindan, Kima sabr-u qanoat yor bo‘lsa. (S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy).

2. Dag‘i boylarning yaxshiroqi ul dururkim, faqirlar qayg‘usin yegay dag‘i faqirlar yaxshiroqi ul dururkim, boylardan ko‘z yumg‘ay. (S.Saroyi. Gulistoni bit-turkiy).

Bu yerda “ko‘z yummoq” jismoniy ko‘z yumishni emas, balki dunyoviy ziynat, boylik, moddiy ne‘matlardan voz kechish, ularga e‘tibor bermaslik, umid uzish, tortinchoqlik yoki loqaydlik ma‘nosini tasvirlagan. Bu holatda quyidagi metaforik xarita yuzga keladi: E‘tibor berish = ko‘zni ochmoq, befarqlik / voz kechish = ko‘z yummoq. Gapda subyekt bu ko‘z yumgan shaxs, ya‘ni u ongli qaror orqali ko‘z yumadi (bu qaror axloqiy, ruhiy, yoki ijtimoiy kuchga ega) va gaplarda frazeologik birlik ontologik metafora asosida ko‘chma ma‘noda ishlatilgan, ya‘ni konkret harakat orqali mavhum mazmun ifodalangan. Kontekstual ma‘nolar dunyoviy ziynatdan voz kechishni (1-matn) va umid uzishni (2-matn) tasvirlagan va bu orqali faol ijtimoiy va axloqiy pozitsiya – boylikka emas, balki ruhiy yuksaklikka intilish bayon qilingan.

“O‘yga bormoq”:

1. Siz kechqurunlari ishlaysiz. Halaqit bermayin degan o‘yga ham boraman-da... (A.Qahhor. Sarob, 162-bet).

2. Muxtorxonning tashqi ko‘rinishi to‘g‘risida ham shunday o‘yga bordi. (A.Qahhor. Sarob, 151-bet).

Frazeologik birlik birinchi gapda “o‘ylash = harakat” sturktur metaforasi asosida o‘ylash jarayoni kognitiv harakat sifatida tasavvur qilingan. O‘ylashni harakat deb tasavvur qilish, fikrning ma‘lum bir yo‘nalishda yurishi va qaror qabul qilish jarayonini ko‘rsatgan. Frazeologik birlik bu kontekstda insonning ichki holatini ifodalagan bo‘lib, uning mental faoliyatini, o‘z qarorlarini qabul qilishini, o‘z fikrlariga hurmat bilan yondashishini ko‘rsatgan.

Keyingi gapda “mulohaza yuritish = aniq yo‘nalishdan borish” sturktur metaforasi asosida polisemantik ma‘no yuzaga chiqqan va mulohaza yuritish faoliyati, ko‘pincha qaror qabul qilishning mental jarayoni sifatida tasvirlangan. Bu mental harakat, qaror qabul qilishning izchil yo‘nalishdagi harakati deb qabul qilinadi. Bu gapda ham frazeologik birlik kognitiv jarayonni anglatadi, bunda shaxs muayyan voqea yoki shaxs haqida qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik va taxminlar asosida fikr yuritishni ifoda etgan.

Yuqorida tahlil qilingan ingliz va o‘zbek tillaridagi frazeologik birliklarni kognitiv-semantik guruhlariga ajratish orqali bu frazeologik birliklarning qanday kognitiv jarayonlar orqali ma‘no va tushunchalarni aks ettirishi haqida umumiy xulosalar chiqarishimiz mumkin. Qisqa qilib aytganda, frazeologik birliklar orqali ifodalangan ma‘lumot uning semantik jihatini, shu ma‘lumotni qanday anglashimiz va tushunishimiz uning kognitiv jihatini izohlab beradi. Quyida frazeologik birliklarning kognitiv-semantik guruhlarini batasil ochib berishga harakat qilamiz:

1. Emotsiya va his tuyg'ularni ifodalovchi frazeologik birliklarni o'z ichiga oladi. Emotsiya va his-tuyg'ular faqat fiziologik reaksiya emas, balki idrok, tajriba va anglash bilan bog'liqdir. Ular ong faoliyatida konseptual tuzilma sifatida mavjud bo'ladi. Shu konseptual tuzilmalar frazeologik birliklarning semantik jihati orqali tilda ifodalanadi. Bu guruh baxt, xursandchilik, qo'rquv, g'azab, xafalik kabi konseptlarni o'z ichiga oladi.

2. Ijtimoiy munosabatlar guruhida odamlarning o'zini tutishi, muloqot jarayonidagi o'zaro munosabatlarini tasvirlashga yordam beradi. Ijtimoiy aloqa, boshqaruv, muloqot, do'stlik, yordam, raqobat kabi konseptlarni ifodalaydi.

Ingliz tilidagi "give a leg up" frazeologik birligi ijtimoiy yordamni, ya'ni biror kishining ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlanishi anglatadi va yordam konseptini ifodalaydi. "move on" frazeologik birligi esa eski voqealardan keyin yangi ijtimoiy munosabatlarni boshlashni ifodalaydi. Shu nuqtai nazardan bu frazeologik birliklarni ijtimoiy munosabatlar kognitiv-semantik kategoriyasiga kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O'zbek tilidagi "adi-badi aytilmoq" frazeologik birligi o'z kontekstual ma'nolari bilan muloqot konseptini ifodalaganligi uchun shu kategoriyaga misol bo'la oladi.

3. Aqliy faoliyatni ifodalovchi semantik guruh intellektual faoliyatlar bilan bog'liq konseptlarni frazeologik birliklar orqali bayon qilinishini tushuntiradi. Kategoriya ikkilanish, anglash va tushunish, qaror qabul qilish, e'tibor kabi konseptlarni ifodalaydi.

O'zbek tilidagi "o'yga bormoq" frazeologik birligi kognitiv jarayonni ifodalaydi, ya'ni fikrlash, mulohaza yuritishni, shaxsning qaror qabul qilish jarayonini anglatadi, shu nuqtai nazardan, bu frazeologik birlikni aqliy faoliyat kategoriyasiga kiritish mumkin.

4. Harakat va faoliyat guruhi jismoniy harakat va faoliyatlarni metaforik tarzda ifodasini tushunishga yordam beradi. Ingliz tilidagi "give a leg up" frazeologik birligi biror kishiga yordam berish va yuksaltirishni, bu esa faollikni ifodalaydi. "get a move on" - tezroq harakat qilish, faollikka chaqirish asosida yuzaga chiqqan faollik va intensiv harakatni bildiradi. "get the ball rolling" (biror ishni boshlash yoki harakatni davom ettirish), "break new ground" (yangi ishni boshlamoq, faoliyat yuritmoq), "pull one's weight" (o'z vazifasini bajarmoq, samarali ishlamoq) frazeologik birliklari ham shu kategoriyaga tasniflanishi mumkin. O'zbek tilidagi "qo'l urmoq" (bajarishni boshlamoq), "zimmasiga olmoq" frazeologik birliklari ham shu kategoriyaga misol bo'la oladi.

5. Sezgi va idrok guruhi ko'rish, eshitish yoki his qilish kabi hissiy tajribalar bilan bog'liq holda abstrakt tushunchalar metaforik tarzda konkretlashtiriladi. Bu kategoriya asosan sezgi orqali olingan ma'lumotlarning ongda tushunilishini ifodalaydi. "Turn a blind eye", "keep an ear to the ground", "ko'zi ochildi", "yuragi o'ynadi" kabi frazeologik birliklar sezgi va idrok kategoriyasiga misol bo'la oladi.

Xulosa qilib aytganda, frazeologik birliklar orqali uzatiladigan ma'lumot uning semantik jihatini, ushbu ma'lumotni anglash jarayoni esa uning kognitiv tabiatini belgilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Lakoff G., Johnson M. *Metaphors We Live By*. – University of Chicago Press, 1980. – 245 p.
2. Теля В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – Москва: «Языки русской культуры», 1996. – 288 с
3. Kövecses Z. *Metaphor: A practical introduction*. – Oxford University Press, 2002. – 280 p.
4. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: «Феникс», 1996. – 381 с.
5. Gibbs R.W.Jr. *The poetics of mind: Figurative thought, language, and understanding*. – Cambridge University Press, 1994. – 527 p.
6. Hakimova G.E. *Frazeologik birliklarning lingvokulturologik aspekti. O'quv qo'llanma*. – Toshkent, 2018. – 126 b.